

**ENG YAXSHI TAKLIFNI TANLASH BO'YICHA  
TEXNIK QISM**

**Innovatsion g'oyalarni qo'llab quvvatlash "Biznes-inkubator" dasturiga  
qo'yilgan amaliy-dars mashg'ulotlarini amalga tadbqiq qilishga  
ko'maklashuvchi trekerlar bo'yicha**

**TEXNIK TOPSHIRIQ**

**UMUMIY MA'LUMOT**

**1.1 BUYURTMANING TO'LIQ NOMI VA SHARTLI BELGILANISHI**

To'liq nomi: "Yoshlarning innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash "biznes inkubator" dasturi doirasida dastur ishtirokchilariga loyihani yo'lga qo'yishda amaliy yordam berish uchun trekerlarni jalb qilish;

Shartli belgilanishi: Trekerlar

**1.2 BUYURTMACHI VA BAJARUVCHI**

Trekerlarni jalb qilish bo'yicha buyurtmachi - Yashnobod innovatsion texnoparki DUK Direksiyasi (Bundan buyon matnda Buyurtmachi deb yuritiladi.)

Manzil: Toshkent shahar, yashnobod tumani, Majnuntol ko'chasi, 5.

Tel: +998 71 296 49 67

Trekerlarni jalb qilish bo'yicha texnik topshiriqni tayyorlovchi - "Biznes-inkubator" faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi.

Bajaruvchi - Buyurtmachi bilan o'rnatilgan tartibda imzolangan shartnomaga muvofiq yoshlarga amaliy ko'mak va nasihatlar bera oladigan trekerlarni jalb qiluvchi.

**1.3 TREKING XIZMATLARINI KO'RSATISH UCHUN ASOS**

"Biznes-inkubator" faoliyatini muvofiqlashtirish dasturiga qo'yilgan amaliy-dars mashg'ulotlarini amalga tadbqiq qilishga ko'maklashuvchi trekerlar jalb etish uchun quyidagilar asos qilib olindi:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 1-2 iyun kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar va kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan 30-sonli yig'ilish bayonining 147-bandi ijrosi

**1.4 MOLIYALASHTIRISH MANBALARI**

"Yashnobod" Innovatsion texnoparki DUK maqsadli mablag'lari.

**1.5 BAJARILGAN ISHLAR NATIJALARINI RO'YXATGA OLISH VA RASMIYLASHTIRISH TARTIBI**

Bajarilgan ishlar natijalari biznes inkubator dasturi finaliga yetib brogan loyihalar soni va sifatiga qarab baholanadi

## 2. QISQARTMALAR, ATAMALAR VA ULARNING TA'RIFLARI

**Biznes-inkubator** – kichik va o'rta biznesni yuritish malakalarini oshirish, tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish bilan shug'ullanadigan ixtisoslashgan o'quv amaliy dasturi;

**MVP** – hayotga layoqatli eng kichik mahsulot;

**KPI** – o'zlashtirishning asosiy ko'rsatkichlari;

**Treker** – o'z tajribalari bilan bo'lishishga tayyor, ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan, loyihalarni amalga tadbqiq qilishga ko'maklashuvchi mutaxassis;

**Treking** – innovatsion g'oyalarni qo'llab quvvatlash biznes inkubator o'quv amaliy dasturi ishtirokchilari loyihalarini monitoring qilish va ularga yo'nalish, maslahat va amaliy ko'mak berish

## 3. TREKINGLARNI O'TKAZISH MAQSADI VA VAZIFALARI

### 3.1 TREKING O'TKAZISH MAQSADI

“Biznes-inkubator” o'quv-amaliy dasturida qatnashuvchi loyiha egalari loyihalarini monitoring qilish va ularga yo'nalish, maslahat va amaliy ko'mak berish orqali startap loyihalar va kichik tadbirkorlikni qo'llab quvvatlash.

## 4. TREKERLARGA QO'YILADIGAN TALABLAR

<b>Mashg'ulotlar formati</b>	Oflayn/onlayn
<b>Oflayn mashg'ulotlar o'tkazilish joyi</b>	Surxondaryo viloyati Oltinsoy innovatsion tumani
<b>Trekerlarga qo'yiladigan talablar</b>	<ol style="list-style-type: none"><li>1. Oliy ma'lumotli bo'lishi;</li><li>2. O'zbek, rus va ingliz tillarini yaxshi bilishi;</li><li>3. Kamida 15 (o'n besh) yillik ish tajribasiga ega bo'lishi;</li><li>4. Xalqaro tashkilotlarda (masalan, UNDP, UNICEF, USAID va boshqalar) ijtimoiy loyihalarda ishtirok etgan bo'lishi;</li><li>5. Startap loyihani ishga tushirish bo'yicha dalillarga asoslangan tajribasi bo'lishi;</li><li>6. Trenerlik va konsulting bo'yicha tajribasi bo'lishi;</li><li>7. Biznes hamjamiyatida aloqalarga ega bo'lishi;</li><li>8. Marketing, savdo va Ijtimoiy trendlardan habardor bo'lishi;</li><li>9. Hozirgi kunda biznes egasi yoki biror bir tashkilotda boshqaruv lavozimida bo'lishi;</li><li>10. O'zbekiston Respublikasidagi biznes-muhitini yaxshi bilishi;</li><li>11. O'zbekiston bozori sharoitida startap eko-tizimdan yaxshi habardor bo'lishi kerak.</li></ol>

## 5. TREKING O'TKAZISH BO'YICHA AMALGA OSHIRILADIGAN ISHLAR RO'YXATI

<b>№</b>	<b>Ish nomi</b>	<b>Muddat</b>	<b>Mas'ul (Buyurtmachi/Bajaruvchi)</b>
1	Dasturda ishtirok uchun qabul qilingan loyihalar bilan tanishib chiqish	Dastur amaliy mashg'ulotlari boshlanishidan yeti kun oldin	Bajaruvchi
2	Dastur ishtirokchilari bilan trekking		

	uchrashuvlari uyushtirish va haftalik monitoring olib borish	Dastur davomida (uch oy)	Bajaruvchi
3	Trening o'tkazish uchun barcha zaruriy sharoitni taqdim etish	Dastur davomida (uch oy)	Buyurtmachi
4	Dastur ishtirokchilari va ularning loyihalarini sarmoya va grant tanlovlari uchuntayyorlashda ko'maklashish	Dastur davomida (uch oy)	Bajaruvchi

## 6. NAZORAT QILISH VA QABUL QILISH SHARTLARI

Biznes inkubator faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi hodimlari bilan dastur davomida doimiy aloqada bo'ladi.

Bajaruvchi ishni to'liq yakunlagandan so'ng Buyurtmachiga aktlar va dalolatnoma asosida ishni topshiradi.

Trekingni jarayonida kelib chiqqan o'zgarishlar va qulayliklar inobatga olinadi.

Trekerlarni jalb qilish texnik topshiriqqa muvofiq o'tkazish jarayonida texnik topshiriqdan tashqari, Bajaruvchining takliflari Buyurtmachi tomonga ma'qul kelgan holatda ma'qullanadi.

Bajaruvchi Buyurtmachi bilan imzolagan shartnoma shartlarini bajarish jarayonida olingan maxfiy ma'lumotlarni boshqa shaxslarga tarqatmaslik yoki ulardan turli maqsadlarda foydalanmaslik majburiyatini oladi.

**Innovatsion g'oyalarni qo'llab quvvatlash "Biznes-inkubator" dasturiga qo'yilgan amaliy-dars mashg'ulotlarini o'tishga jalb etiladigan Spikerlar bo'yicha texnik topshiriqni tasdiqlovchilar**

Direktor

Direktor o'rinbosari


 Sh.Sharifov  
 T.Olimov